

## KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIAT HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

*Baxtiyorova Marxabo Ixtiyor qizi*

*Urganch davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

*E-mail: [baxtiyorovamarxabo@gmail.com](mailto:baxtiyorovamarxabo@gmail.com)*

*Tel: 942303292*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining o'rni, bolalarni axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalashda tabiatning ahamiyati haqida fikrlar aks etgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat hodisalari, fasl o'zgarishlari, ta'lim-tarbiya, kichik maktabgacha yosh davri, tabiat burchagi, ekologik muammolar, mehnatsevarlik.

**Kirish.** Jamiyatning ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy ehtiyojlaridan biri bu – har tomonlama barkamol, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat. Shunday ekan, bo'lajak mutaxassislarni intellektual salohiyatli, ma'naviy-kasbiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davr talabi hisoblanadi. Bunda esa maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini shakllantirish hamda unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatish ham muhim o'rin tutadi.

Hammamizga ma'lumki kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish o'ziga xos murakkab jarayondir. Bu yoshdagi bolalarning o'sishi va bilimlarining rivojlanishiga o'z vaqtida to'g'ri e'tibor qaratilmasa keyinchalik bolada bilimlarni o'zlashtirishda oqsoqlanishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda tizimli o'yinlardan foydalanishni yo'lga qo'yishimiz lozim. Bu esa bolaning bilimlarni tez va qiziqarli tarzda o'zlashtirishiga katta yordam beradigan vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan tabiat muhofazasiga jiddiy ehtibor qaratildi. Avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat muhofazasi jamiyat a'zolari va davlat ishi ekanligi mustaxkamlab qo'yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 68-moddasida “Yer, yer osti boyliklari va suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular tabiat muhofazasidadir” deb qayd etilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda PQ-4312-sonli qabul qilingan “ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

da ham bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida o'zaro bir-biriga bog'liq ta'limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuning uchun ham biz tabiatni asrash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni dastlab maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kichik guruhdaligidan boshlab shakllantirib bormog'imiz lozim.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog'langan bo'lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarni tabiat bilan kichik guruhdaligidanoq tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat hodisalari bilan tanishtirish va ularni kuzatilayotgan narsa-hodisalarni tushunishga o'rgatish bolani aqliy rivojlanishining asosi hisoblanadi. O'z navbatida bu kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlarni tushunishga va tabiatni anglash jarayonidagi fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhim jihatlardan biri sanalib bolalarga hayvonlar va o'simliklarni qanday kuzatishni ko'rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko'rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi va ota-onalar ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy rivojlanishida unda ona tabiatga muhabbat va tiriklikka ehtiyotkorona munosabatda bo'lish asosiy o'rin tutadi. Bolalarga bu tushunchalarni shakllantirishda ular o'sib ulg'ayotgan joy katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida hayvonlar va o'simliklarning mavjud bo'lsa, bolalar ularni kuzatadi va boqadi, tarbiyachiga yordamlashadi. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas'uliyat o'z-o'zidan shakllanadi. Bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish uchun tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash, ularni o'simliklarni sug'orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o'rgatishdan boshlash zarur. Eng muhimi, bolalarning o'zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash ham yuqori natijalarga erishishimiz uchun asosiy o'rin egallaydigan jarayondir. Bolalarning tabiatda bo'lishi va tabiatga bo'lgan munosabatlaridan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini rivojlantirishni va shu asosda bolalarga tarbiya berishni vazifa qilib qo'yadi. Mana shu mas'uliyatli vazifani bajarish birinchi navbatta maktabgacha ta'lim tashkiloti

tarbiyalanuvchilarining zimmasiga yuklatiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim zahiralariga ega bo'lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan narsa va hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izohlay olishlari talab etiladi. Ayniqsa, o'zi yashab turgan joy tabiati: fasl almashinuvlarini kuzata olishi, tabiat kalendarini tuza olishi, o'simlik va gullarni ko'paytirish ko'nikmasiga o'rganishi muhim.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammodir. Shu sababdan ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ekologik ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor berilmoqda. Tabiat bilan tanishtirish metodika fanida talabalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish usullari, «Qizil kitob» haqida qisqacha ma'lumot va «Qizil kitob»ga kiritilgan, noyob o'simlik va hayvonot olami haqida ham bilim berishga katta o'rin berilgan. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligini yoddan chiqarmagan holda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarga tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishni kichik yosh guruhlaridan boshlash kerak. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi. Tabiat rang-barang va uning imkoniyatlari ham cheksiz. Tarbiyachilar, ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko'ra bilishi, ulardan tarbiya jarayonida oqilona foydalanishi talab etiladi. Biz nima uchun bolalarni har tomonlama kamol toptirish kerak deymiz? Chunki inson organizmining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatlar ayniqsa, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq foizini tashkil etadi.

Tabiat bilan tanishtirish insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbasidir, bilamizki tabiatning cheksiz rang-barang olami ayniqsa kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularni o'yinga, mehatga, badiiy faoliyatga undaydi. Biroq kichik maktabgacha yoshdagi bolalar mustaqil ravishda tabiat bilan muloqot qilganda hamma narsani to'g'ri tushuna olmaydi, o'simliklar va hayvonlar bilan munosabatlari har doim ham to'g'ri shakllanmaydi. Bolani tabiat olami bilan tanishtirish, uning obyektlari va hodisalarini to'g'ri ko'rsatish uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini anglashga yo'naltirish kerak. Bolalar tabiatga ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va tabiatni go'zalligini his qilishni o'simliklar yetishtirishning oddiy usullarini hamda hayvonlarga g'amxo'rlik qilishni o'zlashtirganda ifoda eta olishlarini ko'rish mumkin. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'lishadi. Yashil o'rmonlar va o'tloqlar gullar va kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, jonivorlar, harakatlanuvchi bulutlar, yog'ayotgan qor parchalari, soylar, hatto yozgi yomg'irdan keyingi

ko'lmaklar bularning barchasi bolalarni e'tiborini tortadi, ularni quvontiradi. Shu bilan birga aqliy rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Avvalo tabiatni bilish uning predmet va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlariga kirib boorish maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi . ( 68- modda ) 2023-yil 30-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 2019-yil 8-mayda PQ-4312-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida” 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.
4. Kayumova.N.M.-“ Maktabgacha pedagogika.” TDPU -2013 y. O'quv qo'llanma.
5. Qodirova F., Toshpo'latova Sh.,A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ma'naviyat”, 2013.
6. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga mehr tuyg'usini shakllantirish metodlari “ - Latipova Surayyo Hakimovna – 2023-yil. Maqola
7. “ Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish “ - Sherzod Ibroim o'g'li Ibroimov, Munisa Maxkambayevna Fatxullayeva. 2021-yil . Maqola
8. SH.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jayeva “ Tabiat bilan tanishtirish metodikasi “ T: 2013- yil
9. M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.
10. “ Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning shakllari va uning ahamiyati”- Bonu Saburjon qizi Matrizayeva. Science and education – 2022. Maqola
11. “ Патриотическое воспитание детей дошкольного возраста в процессе ознакомления их с природными достопримечательностями Удмуртии”- Васильева Оксана Демьяновна. 2011г
12. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
13. [www.worldcat.org](http://www.worldcat.org)
14. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)